


**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi**  
**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi**

**60911100-Xalq tabobati bakalavriat ta‘lim yo‘nalishining  
malaka talablari**

**Toshkent**

1



## **ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent tibbiyot akademiyasi.

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Tibbiyot tibbiyot akademiyasi uzluksiz kasbiy ta'lim muassasalararo Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202\_yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_-sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 202\_yil «\_\_»\_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o'rta maxsus, professional ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 202~~2~~2yil «~~29~~29» 08 dagi 5 - sonli yig'ilishida ma'qullangan. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 202\_yil «9» 09 dagi 302-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi;

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Mazkur Malaka talablari 910000 – Sog'liqni saqlash ta'lim sohasi Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasiga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talabini rasmiy chop etish huquqi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....	4
1.1	Qo'llanish sohasi.....	4
1.1.1	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi .....	4
1.2.1	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....	4
1.2.2	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari .....	5
1.2.3	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....	6
1.2.4	<i>60911100 - Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining vazifalari .....	6
2.	<i>60911100-Xalq tabobati</i> ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar.....	7
2.1.	Umumiy kompetentsiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetentsiyalar.....	8
	Bibliografik ma'lumotlar.....	8
	Kelishuv varag'i.....	10

## **1. 60911100-Xalq tabobati bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi**

*60911100-Xalq tabobati* ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

**1.1.1. 60911100 - Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi malaka talabining qo'llanilishi.**

Tibbiyot va farmasevtika oliy ta'limning ushbu malaka talablari **60911100-Xalq tabobati** ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va modul dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi barcha tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuasini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

– mazkur ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yo'tuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va modul dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari;

– ta'lim yo'nalishining o'quv reja va modul dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

– o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

– bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestasiya va imtihon komissiyalari;

– tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim muassasasini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

– tibbiyot va farmasevtika oliy ta'lim tizimini akkreditasiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

– ta'lim yo'nalishini ixtiyoriy tanlash huquqiga ega bo'lgan abituriyentlar va boshqa manfaatdorlar.

**1.2. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tasnifi**

**1.2.1. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari.**

*60911100-Xalq tabobati* – bakalavriat ta'lim yo'nalishi – fan va sog'liqni saqlash sohasiga tegishli yo'nalish bo'lib, sog'liqni saqlash tizimi muassasalarida, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish, tibbiy nufuzini oshirish, o'tkir va surunkali kasalliklarning kelib chiqishi va tarqalishini oldini olish, yo'qumli kasalliklarni oldini olish doirasida epidemiya va pandemiyaga qarshi chora - tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish, kasalliklarni tashxislash va

davolashning zamonaviy usullaridan keng foydalangan holda bemorlarning tibbiy muammolari bo'yicha asosiy vazifalarni hal qilish, sog'liqni saqlash tizimining birlamchi bo'g'inida tibbiy-ijtimoiy vazifalarni bajarish bo'yicha kompleks masalalarni echishni o'z ichiga oladi.

**1.2.2. 60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:**

– sog'liqni saqlash tizimidagi jarayonlar, islohatlar, sog'liqni saqlash tizimiga tegishli qaror va farmonlar, buyruqlar, chora – tadbirlar, dasturlar, standartlar, innovasion g'oya va loyihalar, ilmiy-tadqiqot ishlari, ilmiy maqolalar, tezislari, me'yoriy hujjatlar, ma'lumotnomalar, hisobotlar;

– tibbiyot asbob-uskunalar, simulyasion ta'lim texnologiyalari, simulyator rabotlar va fantomlar, dori vositalari, muolajalar, resurslar, vositalar, usul va uslublar majmuasi;

– jamiyat, aholi, oila, bemorlar, tibbiy yordamga muhtoj qariyalar, kattalar va bolalar, ayollar va erkaklar;

- Xalq tabobati sohasidagi qo'llaniladigan turli diagnostik asbob-uskunalar;

- sog'liqni saqlash tizimidagi davolash va profilaktika bo'yicha davlat va xususiy muassasalar, viloyat, shahar, tuman davolash-profilaktika muassasalari;

– innovasion va ilmiy-tadqiqot jarayoni.

**60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy faoliyati qo'yidagilarni qamrab oladi:**

– sog'liqni saqlashni birlamchi tizimida tibbiy faoliyatni tashkil etish;

– aholi salomatligini muhofaza qilish va Sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;

– aholi orasida keng tarqalgan o'tkir va surunkali kasalliklar bo'yicha barcha turdagi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqish va tadbiriq etish;

– yo'qumli kasalliklarni oldini olish va epidemiya, pandemiya sharoitida zarur bo'lgan chora – tadbirlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

– shoshilinch yordam ko'lamini bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lish hamda amaliyotda qo'llash;

– tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan kasalliklar hamda muommolar bo'yicha zamonaviy ma'lumot, bilimlarga ega bo'lish va faoliyati davomida ular to'g'risidagi ma'lumotlar bilan muntazam tanishib borish va qo'llash;

– aholi orasida keng tarqalgan kasalliklar bo'yicha zamonaviy tashxislash va davolash standartlarini maqsadga yo'naltirilgan holda amaliyotda qo'llash;

– dispanserizasiya va reabilitasiya choralari talab qilinadigan holatlarda, ularni aholiga zarur bo'lgan darajada qo'llash chora-tadbirlarini o'z vaqtida amalga oshirish;

– sog'liqni saqlash birlamchi tizimining mehnat resurslaridan oqilona foydalanish va ularni samarali boshqarishda ishtrok etish;

– tibbiyot sohasida dolzarb bo'lgan muommolar bo'yicha ilmiy-tadqiqot faoliyati va innovasion loyihalarni talab darajasida olib borishda ishtrok etish.

-aholini ijtimoiy muhofaza qilishda uning uchun ma'sul bo'lgan tashkilotlar bilan hamkorlikda mavjud resurslardan unumli foydalanish.

### **1.2.3. 60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- tibbiy-profilaktik;
- tezkor va shoshilinch tibbiy yordam;
- tashxislash va davolash;
- reabilitasiya va dispanser nazorati;
- tibbiy-ijtimoiy;
- tashkiliy - boshkaruv;
- ilmiy-tadqiqot va innovasion.

### **1.2.4. 60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining vazifalari.**

60911100- Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi qo'yidagi kasbiy vazifalarini bajarishga bo'lishi lozim:

#### **Tibbiy - profilaktik faoliyatida:**

- aholi orasida sog'lom turmush tarzini targ'ibot qilish;
- aholi orasida kasalliklar rivojlanishiga sabab bo'luvchi xavf omillarni aniqlash va bartaraf etish;
- aholi tibbiy nufuzini oshirish, rasional ovqatlanish tamoyillari hamda zararli odatlari bartaraf etish borasida zarur chora – tadbirlarni amalga oshirish;
- sog'liqni saqlash tizimida birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- tibbiy-profilaktika faoliyatida ilg'or, innovasion texnologiyalarni joriy etish;
- tibbiy –profilaktik faoliyatida xalq tabobati usullarni qo'llanish.

#### **Tezkor va shoshilinch tibbiy yordam faoliyatida:**

- shoshilinch holatlarni o'z vaktida aniqlash;
- kasalxonagacha bo'lgan tez yordam ko'lamini aniqlash va tibbiy yordam ko'rsatish;
- ko'rsatmaga ko'ra zarur mutaxassislarga va kasalxonaga yo'borish.

#### **Tashxislash va davolash faoliyatida:**

- aholi orasida keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy tibbiyot va xalq tabobati usullari orqali tashxislash;
- keng tarqalgan kasalliklarni zamonaviy xalq tabobati usullardan foydalangan holda to'g'ri davolash;
- bemorlarni ko'rsatmaga ko'ra tor mutaxassislar bilan birgalikda olib borish va davolash;
- o'z faoliyatida dalillarga asoslangan tibbiyot standartlaridan foydalanish.

### **Reabilitasiya va dispanser nazorati faoliyatida:**

- kasalliklar bo'yicha reabilitasiya chora tadbirlarini o'tkazishga ko'rsatma va qarshi ko'rsatmalarni, muddatlarini to'g'ri aniqlash;
- reabilitasiya majmualarida xalq tabobati usullarni to'liq hajmda amalga oshirish;
- bemorlar o'rtasida reabilitasiya o'tkazishda zamonaviy va xalq tabobati usullardan foydalanish;
- dispanser nazorati guruhlarida umumiy amaliyoti shifokori bilan to'g'ri aniqlash va bosqichlarini o'z vaqtida amalga oshirish.

### **Ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatida:**

- ilmiy-tadqiqotlarni o'tkazish, yangi ilmiy hamda amaliy natijalarni olish, olingan natijalarni tahlil qilish va amaliyotga tadbiiq qilish;
- echilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning kontseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish.

### **Tibbiy-ijtimoiy faoliyatida:**

oila va alohida aholi guruhlari o'rtasida inson salomatligiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-gigienik, ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlashi va xavf omillarini bartaraf qilish.

## **2. 60911100-Xalq tabobati ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetentsiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetentsiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;
- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;
- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;
- yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtira olishi, takomillashtirishi va o'z mehnatini ilmiy asosda tashkil qila bilish;
- tabiat va jamiyatda yo'z berayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishi, insonning ma'naviy qiyofasi haqida bilimlarga ega bo'lishi, ulardan hayotda va kasbiy faoliyatida hamda zamonaviy ilmiy-tadqiqotlarda foydalana olishi;
- shaxsning inson, jamiyat, atrof muhitga bo'lgan munosabatini tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy me'yorlarni kasbiy faoliyatida qo'llay olishi;
- o'zining individual bilimlariga tayangani holda ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni tushunishi va ularni tahlil qilish;
- o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana bilishi;
- fikrlash madaniyati, muayyan tafakkur uslubiga, og'zaki va yozma nutqini aniq bayon qilish;

- o‘zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy ko‘rib chiqishi va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- ilmiy faoliyati natijalarini xis qilishga yo‘naltirilgan ijtimoiy mas’uliyat shakllangan bo‘lishi;
- kasbiy faoliyatda o‘zlashtirgan fanlarning asosiy qonunlaridan foydalanishi, uslublarni tasniflashi, metodologik tamoyillardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida tassavurga ega bo‘lish.

## **2.2. Kasbiy kompetentsiyalar:**

- kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikasiya texnologiyalari va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;
- professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og‘zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;
- tibbiy xujjatlarni yo‘ritishga tayyorgalik;
- kasbiy muammolarni hal qilishda xalq tabobati usullarni qo‘llanishini, dalillarga asoslangan usullarni tanlashni bilish;
- bemorlarga tibbiy yordam ko‘rsatishda dalillarga asoslangan zamonaviy protokollar va standartlar asosida yordam berish;
- tibbiy yordam ko‘rsatishda ko‘zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.



## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK:61:796/799

Guruh S 73

Oks 75.0

---

### **Tayanch soʻzlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetentsiya, modul, ta'lim yoʻnalishi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning oʻquv reja va fan dasturi, Profil, oʻqib-oʻrganish natijalari, oʻquv davri, axborot-kommunikativ tizimlar, zamonaviy tadqiqot metodlari, axborot va zamonaviy pedagogik texnologiyalar, modellar va modellar, fan ishchi dasturlari, zamonaviy oʻlchov asboblari, ilmiy-tadqiqotlarni tashkil qilish, virtual elektron bilim manbalari, didaktika, nazariya.

Dalillarga asoslangan tibbiyot, tadqiqot usullari, analitik tadqiqotlar, kogort, xodisa - nazorat, randomizasiya, nisbiy xavf, shanslar nisbati, sifat, sifatni oshirish tamoyillari, kontsepsiyalari, menejment, menejer, boshqaruv, etakchilik, tashkilot, motivasiya, normal anatomiya, patologik anatomiya, fizik tekshiruv usullari, kompyuter tomografiya, ultratovush tekshiruv usullari.

Reabilitasiya, davolovchi jismoniy tarbiya, an'anaviy gimnastika usullari, fizioterapiya, kurortologiya, alternativ tibbiyoti, an'anaviy Sharq tibbiyoti, jismoniy reabilitasiya, Readaptasiya, adaptasiya, patologik holatlar, toʻqimalar biopotentsiali, sanatoriy va kurort, refleksoterapiya, massaj, fitoterapiya, sanitariya-gigiena tadbirlari, patologik reaksiya, yoʻrak-qon tomir kasalliklari, ovqat hazm qilish sistemasi, nerv tizimi kasalliklari, ginekologiya, xirurgiya, funktsional sinamalar, elektroforez, fonoforez, akupunktura, akupressura, nutrisiologiya, Manual terapiya.

# KELISHUV VARAG'I

## ISHLAB CHIQLDI:

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Rektor A.K. Shadmanov



2022 yil "1" es

M.O:

## KELISHILDI:

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or  
texnologiyalarni tatbiq etish markazi

Direktor Sh. Yakubov

2022 yil "2" es

M.O'.



Toshkent pediatriya tibbiyot  
instituti

Rektor B.T. Daminov

2022 yil «2» es

M.O'.




O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni  
saqlash vazirligi  
Fan va ta'lim boshqarmasi

Boshliq O'.S. Ismailov

2022 yil "5" es

M.O'.



Toshkent shahar sog'liqni saqlash  
bosh boshqarmasi

Boshliq A.V. Alimov

2022 yil "5" es

M.O'.

